

## SIFATDOSH O'RAMLI MURAKKABLAHSHGAN SODDA GAPLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

**Nurillayeva Shoxsanam Anvarovna**

**Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tayanch doktoranti**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.8394398>**

**Annotatsiya:** Sifatdosh o'ramlar sodda gapni mazmun jihatdan murakkablashtiruvchi vosita sanaladi. Bunday gaplar tuzilish jihatidan sodda bo'lsa ham, mazmun jihatidan murakkab sanaladi, gapda bir necha propozitsiya ifodalanganligi bois mazmuniy nomuvofiqlik yuzaga keladi. Mazkur maqolada sifatdosh o'ramli murakkablashgan sodda gaplarning pragmatik xususiyatlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** murakkablashgan gap, sifatdosh o'ram, mazmuniy nomuvofiqlik, funksional aniqlovchi, propozitsiya, predikatsiya, presuppozitsiya.

Dunyo tilshunosligida pragmatika yangi tarmoq sifatida o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab shakllandi. Pragmatikaning asosiy masalalaridan biri bo'lgan presuppozitsiya haqidagi qarashlar o'zbek tilshunosligida N.Mahmudov, A.Nurmonov, D.Lutfullayeva ishlarida kuzatildi. Lingvistik pragmatikaning asosiy muammolaridan biri presuppozitsiyadir. Presuppozitsiya termini lotincha *sub-osti*, tagi va *ponere-joylashtirmoq*, *joylashmoq* kabi so'zlardan olingan bo'lib, asosga, o'zakka joylashtirmoq ma'nolarini ifodalaydi [Раҳимов Ў 2005, 29]. A.Nurmonov presuppozitsiya logik va semantik tushunchalar bo'lib, logika va sintaktikaning o'rganish obyekti ekanligini, ko'pchilik adabiyotlarda presuppozitsiya bilishning umumiy fondi sifatida talqin qilinishini, tilshunoslikda logik presuppozitsiya bilan lingvistik presuppozitsiyani aralashtirish hollari uchrashini ta'kidlaydi hamda faqat ma'lum tashqi signallar (grammatik ko'rsatkichlar) orqali anglashilgan presuppozitsiyani lingvistik presuppozitsiya hisoblash kerak degan fikrni bildiradi [Нурмонов А, 2012, 239].

O'zbek tilshunosligida pragmatikaga oid masalalarni monografik aspektida tadqiq qilgan M.Hakimov lingvistik pragmatika, presuppozitsiya va tagma'no masalalariga ham munosabat bildiradi: «lingvistik pragmatika va uning muammolari nutqiy akt, presuppozitsiya, yoyiq va yig'iq mazmun ko'rinishlari, shuningdek, tagma'no va kinoya turlari subyekt-obyekt, so'zlovchi-tinglovchi munosabatida namoyon bo'ladi» [Ҳақимов 2013, 19]

Sodda gapda turli leksik vositalar yordamida presuppozitsiya ifodalanishiga doir qator tadqiqotlar yuzaga keldi. Ammo sintaktik sathga oid birliklarning pragmatik xususiyatlari haligacha to'la yoritilmagan. O'zbek tilida sodda gaplarni murakkablashtiruvchi vositalardan biri sifatdosh o'ramli gaplar bo'lib, sifatdosh o'ramlar o'ziga xos propozitsiya ifodalaydi. "U yoki bu zamondagi sifatdosh – ko'chimdan oldindagi gapda mavjud bo'lgan to'liq predikatsiyaning go'yoki "soyasi" sifatida namoyon bo'ladi. Ana shunday ikkinchi darajali predikatsiyali sifatdosh o'ram qatnashgan gapning mazmuni o'ramdagi propozitsiyaga ko'ra murakkablashuvi, ya'ni bir sintaktik sodda gapda ikki mazmun munosabati joylashishi mumkin" [Маҳмудов Н., Нурмонов А 1995, 71]

*Xosiyatning onasi ozg'in, baland bo'yli, doim guli o'chgan ko'ylak kiyib yuradigan ayol* (Isajon Sulton). Keltirilgan ushbu misolda *doim guli o'chgan ko'ylak kiyib yuradigan* sifatdoshi o'ram gapda ot-kesimning aniqlovchisi vazifasida kelgan bo'lib, unda *yangi ko'ylak ola olmasdi* degan mantiqiy presuppozitsiya ifodalangan.

*Behi ham gapirmas ekan, ammo u bilan suhbatlashganlari Ra'noning esida edi, albatta.* (Isajon Sulton). Suhbatlashmoq fe'li nutqiy muloqotga kirisha oladigan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Ammo keltirilgan misolda *Ra'no behi bilan suhbatlashgan* degan presuppozitsiya anglashiladi.

*Oy yanada havolab, kecha qorong'isida shitirlyotgan teraklar uchiga yetganida ayvonga qatorasiga joy solinadi, boshi yostiqa tegishi bilan dong qotib, bolalikning musaffo uyqusiga cho'madi* (Isajon Sulton). Keltirilgan misolda *kecha qorong'isida shitirlyotgan teraklar* sifatdash o'ramida teraklar shitirlyadi degan propozitsiya ifodalaniib, mazmun jihatdan sodda gapni murakkablashtirishga xizmat qilgan hamda *hovlida teraklar bor* degan presuppozitsiyaga ishora qiladi.

Gap tarkibida sifatdash o'ramlar uyushiq holatda ham kelishi mumkin. Bunday hollarda ham shakliy, ham mazmuniy murakkablashuv kuzatiladi. *Ikkovining ham oyoqchalari ingichka, tovonlari qorayib-qorayib ketgan, ikkalovi ham ko'zlari chaqnab-chaqnab turadigan yoqimtoy qizaloqlar* . (Isajon Sulton). Ushbu gapda ikkita sifatdash o'ram uyushgan holda kelgan. Birinchi sifatdash o'ram *tovonlari qorayib-qorayib ketgan* bo'lib, bundan *yalangoyoq o'ynar edi* degan presuppozitsiya anglashiladi.

Sifatdash qurilmalarda predikativlik belgisi mavjud bo'lmaganligi sababli quyidagi gapda birdan ortiq sifatdash o'ram ishtirok etganiga qaramay, sodda gap hisoblanadi. *Endilikda so'qmoq bo'ylab ohista yo'rtib borayotgan bu jonivor bir paytlar ishqibozlar orasida dovrug' qozongan itga sira o'xshamasdi.* (N.Norqobilov). Keltirilgan misolda *so'qmoq bo'ylab ohista yo'rtib borayotgan, ishqibozlar orasida dovrug' qozongan* sifatdash o'ramlari aniqlovchi vazifasida kelgan bo'lib, egani aniqlab kelgan. Birinchi sifatdash o'ramdan *jonivor qarigan, horigan*; ikkinchisidan *yoshligida ishqibozlari ko'p edi* degan presuppozitsiya anglashiladi.

Ma'lumki, sifatdash ham zamon ma'nosini ifodalash xususiyatiga ega, lekin sifatdash o'ramdagi zamon ma'nosi gapning zamoniga ta'sir o'tkazmaydi: *Men buni yaxshi bilardim va bilganim bois, mashinaga yuklanayotgan har bir yukka ko'z-quloq bo'lib turardim* (N. Norqobilov).

Sifatdash o'ram bilan murakkablashgan quyidagi sodda gapda ikkita propozitsiya ifodalangan: *Saharlab qush uyqusida xiyol ko'zi ilingan Ra'noni xolasi dahlizdan ovoz berib uyg'otdi* ( Isajon Sulton). Mazkur gapda 1) Ra'noning qush uyqusida xiyol ko'zi ilinganligi; 2)xolasi dahlizdan ovoz berib saharlab uyg'otgani propozitsiyalari ifodalanayotganiga qaramay, sodda gap hisoblanadi. Gap tarkibidagi sifatdash o'ramdan *tuni bilan uxlamadi* degan presuppozitsiya anglashiladi.

*Bu ko'rgan tushining ta'birini yecholmay, qo'ra devoriga parishon suyanib turgan chol shuning uchun ham itning besaranjomligini birdan ilg'ay qolmadi* (N.Norqobilov). Keltirilgan gapdagi sifatdash o'ramdan chol qo'raning oldida turibdi, hovlida qo'ylar qo'rasi bor degan presuppozitsiyalar anglashiladi. *It ochiq eshikdan tashqariga intilayotgan suruvning harakatiga oshkora monelik qilmoqda edi* (N.Norqobilov). Ushbu misolda esa qo'ylar qo'rasi ochildi degan mazmun angashiladi. *Tog'larni tomosha qilgan, so'ng soqoli qirtishlanmagan iyagini qirt-qirt qashlagancha, chuqur homuza tortgan bo'ldi* (N.Norqobilov). Ushbu misolda qo'llanilgan sifatdash o'ramdan uzoqdan tog'lar ko'rinib turibdi, so'zlovchi erkak ekanligi haqidagi presuppozitsiyalarni mantiqan chiqarib olish mumkin. *Qaradi va to'ni bariga og'iz solgan Oqquyruqning qilg'idan bu safar uncha ajablanmadi* (N.Norqobilov). Keltirilgan misolda subyekt to'n kiyganligi, iti avvallari ham uning barida tortishi haqidagi mazmun

anglashiladi. *Suruv boshida itni qoralab yurishga majbur bo'lgan qora serka goh unga bo'ysungisi kelmay, o'ngga-so'lga shox tashlab qoladi.* (N.Norqobilov). Ushbu misolda esa suruvni it boshlab boradi degan presuppozitsiya yashirin ifodalangan, shu tariqa gap mazmunan murakkablashgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, sifatdosh o'ramli gaplarda mazmun murakkablashib, sodda gapda bir necha propozitsiya ifodalanishi mumkin. Gap tarkibida presuppozitsiyaga ishora qiluvchi birliklar ifodalanmasligi mumkin, ammo mantiqiy jihatdan uning murakkabligi til egalari tomonidan idrok qilinadi. Bu tilda tejamkorlik tamoyilining amal qilinishi natijasida yuzaga keladi.

### References:

1. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
2. Нурмонов А. Кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси (-дан ташқари конструкцияси) // Танланган асарлар. 3 жилдлик. 3-жилд. Тошкент, 2012. Академнашр.
3. Раҳимов Ў. Тагмаъно ва пресуппозиция // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2005. 5-сон. – Б.29